

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 393 sahifa.
2025-yil, 19-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	



O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI



Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktranti

E-mail: madinaberdivaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi kesimida mavjud eksport imkoniyatlari o'rganilib, har bir sektorning eksportdagi o'rni hamda salohiyati baholangan. Shuningdek, eksportni rag'batlantirish siyosatini takomillashtirish maqsadida soliq va bojxona yengilliklari, imtiyozli kreditlar va sug'urta mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksportga yo'naltirish strategiyalari, ularning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini kuchaytirish yo'llari ham ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, yashil va yuqori texnologik mahsulotlar eksportini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlari tahlil etilgan. Yakunda, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, ular mamlakatning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, barqaror iqtisodiy o'sish, sanoat eksporti, xizmatlar sohasi, rag'batlantirish siyosati, soliq va bojxona yengilliklari, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro bozor, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article presents a comprehensive and systematic analysis of the key directions for enhancing export potential as a driving force for ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan. The study explores existing export opportunities across industry, agriculture, and the service sector, providing an in-depth assessment of each sector's contribution and potential in export development. Furthermore, it substantiates the importance of improving export promotion policies through the introduction of tax and customs incentives, preferential lending mechanisms, and effective insurance instruments. The article also examines strategies to encourage domestic producers to expand into foreign markets and strengthen their integration into global value chains. Additionally, it highlights the potential for achieving sustainable growth through the development of environmentally friendly and high-technology exports. In conclusion, practical proposals and policy recommendations are presented to strengthen Uzbekistan's export capacity and enhance its competitiveness in the global economy.

Keywords: export potential, sustainable economic growth, industrial exports, service sector, export promotion policy, tax and customs incentives, support for producers, international market, competitiveness.

Аннотация. В данной статье представлено всестороннее и системное исследование приоритетных направлений повышения экспортного потенциала как ключевого фактора обеспечения устойчивого экономического роста в Узбекистане. В частности, рассмотрены существующие экспортные возможности в промышленности, сельском хозяйстве и сфере услуг, дана оценка вклада и потенциала каждого сектора в развитии экспорта. Кроме того, обоснована необходимость совершенствования политики стимулирования экспорта посредством налоговых и таможенных льгот, преференциального кредитования и эффективных страховых механизмов. В статье также изучены стратегии ориентации отечественных производителей на экспорт и пути укрепления их интеграции в международные рынки. Особое внимание уделено возможностям достижения устойчивого роста за счёт развития экспорта экологически чистой и высокотехнологичной продукции. В завершение предложены практические рекомендации, направленные на повышение экспортного потенциала Узбекистана и укрепление его конкурентоспособности на мировом рынке.

Ключевые слова: экспортный потенциал, устойчивый экономический рост, промышленный экспорт, сфера услуг, политика стимулирования экспорта, налоговые и таможенные льготы, поддержка производителей, международный рынок, конкурентоспособность.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiy jarayonlarda milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi, avvalo, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rniga, xususan, eksport salohiyatining darajasi va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liqdir. Eksport hajmining ortib borishi nafaqat xorijiy valyuta tushumlarining barqarorligini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish tarmoqlarining texnologik yangilanishini jadallashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida eksport salohiyatini kengaytirish va tashqi savdo faoliyatini modernizatsiya qilish doimiy ravishda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib kelinmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar, jumladan, eksportni rag'batlantirish siyosatini takomillashtirish, bojxona va soliq yengilliklarini joriy etish, yangi logistika yo'nalishlarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh milliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish choralari ushbu yo'nalishdagi natijadorlikni sezilarli darajada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyatini oshirish masalasi bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarining markazida turadi. Nazariy jihatdan bu masala klassik va neoklassik iqtisodiyot maktablari tomonidan ishlab chiqilgan tashqi savdo konsepsiyalariga tayanadi. A. Smitning "mutlaq ustunlik" va D. Rikardoning "nisbiy ustunlik" nazariyalari xalqaro mehnat taqsimoti va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini asoslab bergan. Keyinchalik, E. Xeksher va B. Olin tomonidan ishlab chiqilgan faktor nisbati modeli eksport salohiyatining mamlakat resurslariga bog'liqligini ko'rsatdi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida P. Krugman va M. Obstfeldlarning tadqiqotlari global qiymat zanjirlari (Global Value Chains) nazariyasi asosida eksportni diversifikatsiyalash va innovatsion mahsulotlar eksportining ahamiyatini chuqurlashtirdi. Xorijiy olimlardan Ch. Bown o'zining "Trade Deflection and Trade Depression" nomli ishida savdo oqimlari, tarif siyosati va eksport faoliyatini rag'batlantirishning xalqaro mexanizmlarini tahlil qilib, davlat aralashuvining barqaror o'sishdagi rolini ilmiy asoslab bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari esa eksport salohiyatini oshirish masalasini milliy iqtisodiyot sharoitiga mos holda tahlil etadi. Ularning fikricha, eksport hajmini kengaytirish nafaqat tashqi savdo balansini yaxshilaydi, balki ishlab chiqarish tarmoqlarining texnologik modernizatsiyasini jadallashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli¹ "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" va PF-158-sonli² "O'zbekiston-2030" strategiyasi eksportni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan bo'lib, soliq-bojxona yengilliklari, eksport kreditlari, sug'urta tizimlari hamda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali eksportni rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksport salohiyatini oshirish masalasi iqtisodiy-statistik, tahliliy va empirik usullar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Jahon banki hamda Prezident farmon va qarorlarida keltirilgan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil jarayonida eksport hajmi, o'sish sur'atlari, YalMdagi ulushi, tashqi savdo balansi va eksport diversifikatsiyasi kabi ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Metod sifatida qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va iqtisodiy-matematik modellashirish uslublari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari eksport salohiyatining o'sish omillarini aniqlash, sektorlar kesimida samaradorlikni baholash hamda yashil iqtisodiyot va raqamli eksport yo'nalishlarining iqtisodiy ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global iqtisodiy makonda integratsiyalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda eksport salohiyatini oshirish har bir davlat uchun iqtisodiy barqarorlik va o'sishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham mazkur yo'nalishda izchil islohotlarni amalga oshirib, mahsulot va xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshligini oshirish hamda yangi bozorlarni egallash orqali milliy iqtisodiyotning tashqi savdo salohiyatini mustahkamlashga intilmoqda. Eksport salohiyatini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/docs/-6600413>



yanada kengaytirish uchun sektorlar kesimidagi mavjud imkoniyatlardan kompleks va tizimli ravishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, sanoat sektori eksportning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida alohida o'rin tutadi. Maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarida yaratilayotgan zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar — xususan, to'qimachilik, mashinasozlik, qurilish materiallari hamda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Bu jarayon nafaqat eksport hajmini oshirish, balki mahsulotlarning geografik va tarmoq bo'yicha diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini yaratmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasi esa O'zbekiston uchun an'anaviy, ammo hali to'liq ishga solinmagan eksport salohiyatiga ega tarmoq hisoblanadi. Mamlakatning iqlim sharoiti, yer resurslari va mehnat salohiyati eksportga yo'naltirilgan meva-sabzavot, uzumchilik, paxtachilik hamda parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, organik va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali xorijiy bozorlarning yuqori talablariga mos mahsulotlarni eksport qilish imkoniyati mavjud. Bu borada agroklastlar faoliyatini rivojlantirish, sovg'ichli omborlar qurish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy xizmatlar sohasi, ayniqsa, raqamli xizmatlar, axborot texnologiyalari, ta'lim, tibbiyot va transport-logistika yo'nalishlarida eksport imkoniyatlari yildan-yilga kengayib bermoqda. O'zbekistonning ushbu sohalaridagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun xizmatlar eksportiga oid statistik hisobotlarni yanada takomillashtirish, sohada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish va global standartlarga mos infratuzilmani shakllantirish zarur.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotining barcha asosiy tarmoqlarida eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatning xalqaro iqtisodiy makondagi mavqeini mustahkamlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolish hamda milliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari³.

Qo'llab-quvvatlash shakli	Tavsifi
Subsidiyalar va grantlar	Eksport faoliyatini kengaytirish maqsadida davlat tomonidan moliyaviy yordam ajratiladi.
Imtiyozli kreditlar	Past foizli kreditlar orqali eksportga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtiriladi.
Valyutani erkin tasarruf qilish	Tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'z valyuta mablag'laridan erkin foydalanish huquqiga ega.

Eksport faoliyatini faollashtirish jarayonida davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq va bojxona yengilliklari, eksport kreditlari, sug'urta mexanizmlari hamda moliyaviy kafolatlar orqali eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Xususan, eksportga yo'naltirilgan korxonalarni qo'shilgan qiymat solig'idan (QQS) ozod qilish, "yashil koridor" tizimini kengaytirish hamda bojxona rasmiylashtiruvchi jarayonlarini raqamlashtirish orqali eksport faoliyatini yanada soddalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, eksport sug'urtasi tizimini rivojlantirish, eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va tashqi bozorlar haqidagi ma'lumotlarni eksportchilarga tezkor yetkazish tizimini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi eksport jarayonlarining samaradorligini oshirish, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi (2-jadval).

3 Muallif izlanishlari asosida mustaqil tuzilgan.

2-jadval. Yashil va yuqori texnologik eksport yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorligi tahlili

Eksport yo'nalishi	Turlari va tasnifi	Iqtisodiy samaradorligi
Qayta tiklanuvchi energiya uskunalari	Quyosh panellari, shamol turbinolari va biogaz tizimlarini ishlab chiqarish hamda eksport qilish. Mazkur yo'nalish global energetika transformatsiyasining markazida turadi.	– Energetik mustaqillikni oshiradi. – Yuqori eksport salohiyatiga ega. – Innovatsion va yuqori malakali ish o'rinlarini yaratadi.
Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Kimyoviy o'g'itlarsiz yetishtirilgan ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu yo'nalish Yevropa Ittifoqi va rivojlangan mamlakatlar bozorlarida katta talabga ega.	– Yuqori narxli premium segmentdagi mahsulot hisoblanadi. – Eksport bozorlarida raqobatbardoshlikni oshiradi. – Ekologik tozalik orqali brend qiymatini kuchaytiradi.
Axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlar	Dasturiy mahsulotlar, IT-konsalting, texnik xizmat ko'rsatish va raqamli texnologiyalarni eksport qilish. Ushbu yo'nalish transchegaraviy xizmatlar eksportining asosiy drayveridir.	– Yuqori qo'shilgan qiymatga ega. – Kapital talabining nisbatan pastligi bilan ajralib turadi. – Global raqamli iqtisodiyotga chuqur integratsiyani ta'minlaydi.
Raqamli eksport platformalari va elektron to'lov tizimlari	Elektron tijorat, transchegaraviy to'lovlar va fintech xizmatlari orqali to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilar bilan aloqani yo'lga qo'yish.	– Eksport hajmini barqaror oshirishga xizmat qiladi. – Kichik va o'rta biznes sub'yektlariga global bozorga kirish imkonini yaratadi. – Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini jadallashtiradi.

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda ekologik xavfsiz va yuqori texnologiyali eksport yo'nalishlari tobora muhim strategik omilga aylanmoqda. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, energiya tejankor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni xorijiy bozorga yo'naltirish orqali iqtisodiy samaradorlik bilan birga ekologik barqarorlikka ham erishilmoqda.

O'zbekiston uchun qayta tiklanuvchi energiya uskunalari, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari va raqamli xizmatlar eksporti iqtisodiy o'sishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi, xususan, elektron tijorat (e-commerce) va elektron to'lov tizimlarining kengaytirilishi, xorijiy bozorlar bilan bevosita hamkorlikni kuchaytirib, eksport jarayonlarini yanada modernizatsiya qilmoqda.

2025-yilning dastlabki to'rt oyida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ayirboshlanishi hajmi 24,6 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 16,3 foizga oshgan. Mazkur o'sish mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorlariga faol integratsiyalashib borayotganini hamda eksport salohiyatining izchil mustahkamlanayotganini yaqqol tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida eksport hajmi (mln AQSH dollari)⁴.

Hududlar nomi	2024 yil	2025 yil	O'sish sur'ati, %	Jami hajm ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi	8 792,1	11 882,1	135,1	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	129,5	115,3	89,0	1,0
Andijon viloyati	346,4	308,6	89,1	2,6
Buxoro viloyati	93,1	101,6	109,1	0,9
Jizzax viloyati	64,1	57,9	90,3	0,5
Qashqadaryo viloyati	165,8	144,2	87,0	1,2
Navoiy viloyati	352,7	390,8	110,8	3,3
Namangan viloyati	170,0	198,2	116,6	1,7
Samarqand viloyati	247,9	336,7	135,8	2,8
Surxondaryo viloyati	73,1	135,8	185,8	1,1
Sirdaryo viloyati	85,2	85,9	100,9	0,7
Toshkent viloyati	553,4	594,2	107,4	5,0
Farg'ona viloyati	181,3	196,3	108,3	1,7
Xorazm viloyati	118,5	121,4	102,4	1,0
Toshkent shahri	1 529,7	1 863,0	121,8	15,7

4 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.



Bu ko'rsatkich O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlik darajasi ortib borayotganini va xalqaro savdo munosabatlarida faollikning izchil kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, eksport hajmining 35,1 foizga o'sib, 11,88 milliard AQSH dollariga yetgani O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan global talab ortayotganini hamda ichki ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro ehtiyojlarga moslashayotganini tasdiqlaydi.

Tashqi savdo balansi 846,3 million AQSH dollari miqdorida manfiy tafovut bilan yakunlangan bo'lsa-da, eksport sur'atlarining importdan ancha yuqori o'sish dinamikasi bu farqning yaqin istiqbolda ijobiy tomonga o'zgarish ehtimolini kuchaytiradi. Mamlakatning 183 ta davlat bilan faol savdo aloqalari olib borayotgani esa xalqaro iqtisodiy integratsiyaning tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari qatorida Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya hamda Koreya Respublikasi yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Eksportning hududlar kesimidagi tahlili esa iqtisodiy faollikning geografik taqsimotini aniq aks ettiradi. Jumladan, 2025-yil yanvar–aprel oylarida eng katta eksport hajmi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 1 863,0 million AQSH dollarini yoki umumiy eksportning 15,7 foizini tashkil etdi. Ushbu natija poytaxtda sanoat, logistika va texnologik infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi, shuningdek, tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yirik korxonalar faoliyatining kengaygani bilan izohlanadi.


Ayni paytda, Jizzax viloyati eksport hajmi bo'yicha eng past natijani — 57,9 million AQSH dollari yoki 0,5 foiz ko'rsatkichni qayd etdi. Ushbu holat viloyatda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlari va zamonaviy logistika infratuzilmasini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatda muvozanatni ta'minlash va qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish lozimligini anglatadi.

Surxondaryo viloyati eksport o'sish sur'ati bo'yicha alohida e'tiborga loyiq. 2024-yilga nisbatan bu hududda eksport hajmi 185,8 foizga oshgan bo'lib, bu natija viloyatda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatining faollashganini hamda mintaqaviy tashqi iqtisodiy imkoniyatlarning kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Samarqand, Navoiy va Namangan viloyatlarida ham eksport hajmining barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi. Umuman olganda, eksport hajmining ortib borishi nafaqat iqtisodiy faollikning kuchayganidan, balki ishlab chiqarishning diversifikatsiyalanayotganidan, mahsulotlarning raqobatbardoshligi va xalqaro standartlarga moslashayotganidan ham dalolat beradi.

Yashil iqtisodiyot va yuqori texnologiyalar asosida eksport yo'nalishlarining kengayib borayotgani O'zbekiston tashqi savdo strategiyasining innovatsion va ekologik barqaror yo'nalishlarga asoslanayotganini ko'rsatadi. Shu bois, tashqi savdoni rivojlantirishda hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va logistika tizimini takomillashtirish muhim strategik vazifa sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Eksport geografiyasining kengayishi hamda eksport hajmining izchil o'sib borishi mamlakatning raqobatbardosh, barqaror va ochiq iqtisodiyot sari izchil harakat qilayotganini yaqqol aks ettiradi (1-rasm).




1-rasm. YaIM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar–mart⁵.

2025-yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) joriy narxlarda 333 592,7 milliard so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,8 foizga o'sishni ifodalaydi.

5 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.

YalM hajmining barqaror o'sishi mamlakat iqtisodiyotida keng ko'lamli faollik kuzatilayotganini, ichki talabning mustahkamligini, shuningdek, eksport va ichki ishlab chiqarish sohalarining izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mazkur ijobiy o'sish sur'ati O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorligi va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini tasdiqlab, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, yalpi ichki mahsulot hajmining izchil ortib borishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida — sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida barqaror rivojlanish, innovatsion yangilanishlar hamda iqtisodiy faollikning ortib borayotganini tasdiqlaydi (2-rasm).



2-rasm. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar⁶.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksport salohiyatini oshirish quyidagi strategik yo'nalishlar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlarga yo'naltirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish nafaqat yuqori iqtisodiy samara beradi, balki milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, ekologik toza, energiya tejamkor hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar eksportini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy elektron tijorat (e-commerce) platformalari, elektron to'lov tizimlari va logistika infratuzilmasini takomillashtirish esa eksport jarayonlarini soddalashtirib, xorijiy bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, eksport bozorlarini diversifikatsiyalash, ya'ni yangi geografik yo'nalishlarga chiqish ham dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun eksportchi korxonalarni soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, shuningdek, konsalting va marketing xizmatlari orqali qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bevosita eksport salohiyatining o'sishiga va tashqi savdo faoliyatining samaradorligiga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksportni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasini chuqurlashtiradi, texnologik modernizatsiyani jadallashtiradi hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

6 Muallif izlanishlari asosida mustaqil tuzilgan.



Birinchidan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xorijiy bozorlarga eksport qilishni kengaytirish zarur. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar eksportini oshirish milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot va yuqori texnologiyali eksport yo'nalishlarini rivojlantirish muhim strategik ustuvorlik sifatida qaralishi lozim. Qayta tiklanuvchi energiya uskunalari, organik mahsulotlar va IT-xizmatlari eksporti mamlakatning ekologik barqaror o'sish modeliga mos keladi.

Uchinchidan, eksportni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlar, sug'urta kafolatlari hamda eksportoldi moliyalashtirish tizimini rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, raqamli savdo platformalari va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish eksport jarayonlarini soddalashtiradi hamda xorijiy bozorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytiradi.

Beshinchidan, hududiy eksport salohiyatini oshirish uchun mintaqaviy ishlab chiqarish klasterlarini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirish va kichik hamda o'rta biznes sub'yektlarini tashqi bozorga chiqishga rag'batlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, eksport salohiyatining izchil o'sishi O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlab, global raqobatda milliy iqtisodiyotning nufuzini oshiradi. Shu sababli, eksportni rivojlantirish strategiyasi innovatsion, ekologik va hududiy muvozanat tamoyillari asosida olib borilishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-60-son. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini qo'llab-quvvatlash va eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4869-son qarori. – Toshkent, 2020-yil.
4. Bown, Chad P. Trade Deflection and Trade Depression.
5. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. 2025-yil yanvar–aprel oylari uchun ma'lumot.
6. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. 2024-yil yanvar–dekabr oylari uchun ma'lumot.
7. 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
8. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni. Yangi tahrir.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. – www.stat.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. – <https://miit.uz>.
11. Jahon banki. Uzbekistan Country Economic Update. – World Bank Report, 2023-yil. – www.worldbank.org.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100